



Xalq soʻzi

Oʻzbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 21-yanvar, № 13 (9184)

Chorshanba

Saytimizga oʻtish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



SPORTNI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-yanvar kuni sport sohasida
2025-yilda amalga oshirilgan ishlar, yirik musobaqalar
natijalari hamda 2026-yil uchun moʻljallangan vazifalar
yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.**

Qayd etilganidek, sportda yaxlit tizim yaratilgani oʻzining amaliy natijalarini bera boshladi.

Aholining ommaviy sport bilan qamrovi 15 million nafarga yetdi, sport bilan doimiy shugʻullanuvchilarning soni soʻnggi yillarda qariyb 1,5 barabarga oshdi.

Oʻtgan yili yoshlarimiz jahon universiadasiida 13-oʻrin, Bahrayndagi Osiyo yoshlar oʻyinlari va Saudiya Arabistonidagi Islom birdamligi musobaqasida 2-oʻrin, BAAdagi Yoshlar Paraosiy oʻyinlarida 1-oʻrinni egalladi.

Futbol boʻyicha milliy terma jamoamiz ilk bor jahon chempionati yoʻllanmasini qoʻlga kiritdi, joriy yil shaxmatchimiz Javohir Sindorov esa "Jahon toji" uchun nomzodlar turnirida ishtirok etadi.

Shu bilan birga, bu natijalar bilan cheklanib qolmaslik, mavjud imkoniyatlar va yaratilgan sharoitlardan toʻliq foydalanish zarurligi taʼkidlandi. Ayrim sport turlari boʻyicha natijalar hali mavjud infratuzilma va salohiyatga toʻliq mos kelmayotgani koʻrsatib oʻtiladi.

Eng avvalo, ommaviy sport bilan shugʻullanuvchilarning sonini yaqin istiqbolda 17 million nafarga yetkazish zarurligi qayd etildi.

Xalqaro sport oʻyinlari va Olimpiadalar uchun munosib xazira yaratish maqsadida tashkil etilgan Prezident Olimpiadasi orqali ochiq va shaffof seleksiya tizimini yoʻlga qoʻyishni davom ettirish muhim ekani koʻrsatib oʻtiladi.

Birinch musobaqada 103 ming nafar sportchi ishtirok etdi, final bosqichida 11 ta sport turi boʻyicha 3 mingdan ortiq sportchilar 135 ta oltin,

134 ta kumush va 227 ta bronza medali uchun bellashdi.

Endilikda musobaqalarni yiliga 2-marta oʻtkazish va hududlarda 13-14 yosh toifasida tashkil etish, sport turlarining sonini bosqichma-bosqich 20 taga yetkazish topshirildi.

Shuningdek, oʻtgan yili Olimpiya shaharchasi va Milliy futbol markazi foydalanishga topshirilgani sport sohasida muhim tarixiy voqea sifatida qayd etildi. Hozirgi kunda Olimpiya shaharchasiga 17 ta olimpiya sport federatsiyasi va boshqa sport tashkilotlari koʻchib oʻtgan. Endi ushbu majmualar oʻzbek sportining milliy timsoli va yagona klasteriga aylanishi lozimligi taʼkidlandi.

Sport sohasini yanada rivojlantirishda ilmiy yondashuvni kuchaytirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Taʼkidlanganidek, yuqori sport natijalariga erishish nafaqat infratuzilma va musobaqalar, balki sport fanining barcha yoʻnalishlarini tizimli rivojlantirish bilan bevosita bogʻliq.

Bu borada sport farmakologiyasi, diyetologiya, funksional va jismoniy tayyorgarlik, reabilitatsiya hamda yuklamalarni individual rejalashtirish boʻyicha zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish vazifalari belgilandi. Ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, sport sohasidagi ilgʻor ishlanmalar va soʻnggi tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, milliy va xalqaro darajada ilmiy anjumanlar va konferensiyalar oʻtkazish orqali tajriba almashinuvini kuchaytirish muhim ekani taʼkidlandi.



SOGʻLIQNI SAQLASH SOHASIDA ISLOHOTLARNI YANADA KENGAYTIRISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR TAQDIMOTI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev sogʻliqni saqlash tizimini
takomillashtirish, aholiga tibbiy xizmat koʻrsatish sifatini
hamda sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning
samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti
bilan tanishdi.**

Taqdimotda, avvalo, oʻtkir yurak-qon tomir va serebrovaskulyar kasalliklarning oldini olish va davolashni takomillashtirish boʻyicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Rejaga koʻra, "Stent for Life" va "Action Plan for Stroke" xalqaro dasturlari asosida ishlab chiqilgan "Infarkt va insultga qarshi kurashish" milliy dasturi 2026-yil 1-maydan boshlab Samarqand viloyati va Toshkent shahrida, 1-oktabrdan Andijon, Namangan va Fargʻona viloyatlarida, 2027-yildan esa boshqa hududlarda amaliyotga joriy etiladi.

Milliy dastur doirasida 30 yoshdan oshgan aholi oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazish hamda natijasiga koʻra aniqlangan xavf guruhiga mansub fuqarolarni maqsadli tibbiy tekshiruvlardan oʻtkazish hamda bemorlarga shoshilinch tibbiy xizmat koʻrsatish algoritmari va klinik marshrutlarini amaliyotga joriy etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, mazkur kasalliklarda shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatishda xalqaro standartlarga muvofiq "oltin soat" tamoyilining vaqt meʼyorlari joriy etiladi.

Taqdimotda tez tibbiy yordam xizmatining moddiy-texnik va raqamli imkoniyatlarini keskin oshirishga qaratilgan choralar ham keltirildi. Brigadalar telemetrik elektrokardiograf va monitorli defibrilyatorlar bilan taʼminlanadi. Shu jumladan, EKG natijalarini sunʼiy intellekt yordamida tahlil qilish va axborot tizimi orqali yuborish, shuningdek,

tez tibbiy yordam brigadalari va shifoxonalar oʻrtasida real vaqt rejimida maʼlumot almashish joriy etiladi.

Statsionar tibbiyot muassasalarida insultni sunʼiy intellekt asosida tashxislash imkoniyati yaratilib, bemorlarning harakat marshruti raqamlashtiriladi. Shifoxonalar esa shoshilinch holatlarda jarrohlik amaliyotlarini oʻtkazish uchun tromb erituvchi dori vositalari hamda zarur sarflov materiallari bilan taʼminlanadi.

Shoshilinch statsionar tibbiy xizmat koʻrsatishga nodavlat tibbiyot tashkilotlarini jalb qilish, oʻtkir yurak-qon tomir va bosh miyada qon aylanishining oʻtkir buzilishi holatlarida koʻrsatilgan tibbiy xizmatlar Davlat tibbiy sugʻurtasi jangʻarmasi orqali moliyalashtiriladi.

Milliy dastur doirasida "Elektron sogʻliqni saqlash" axborot tizimida bemorlar hamda xavf guruhidagi aholining elektron reestri yuritilishi taʼminlanadi.

Aholi oʻrtasida profilaktika va targʻibot ishlariga ham alohida urgʻu berildi. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy roliklar, infografika, animatsiya va qisqa metrajli videoroliklar tarqatish, bozor va savdo markazlari yaqinida bilbord va bannerlar joylashtirish, taʼlim muassasalari, korxona va mahallalarda infarkt va insult alomatlarini barvaqt aniqlash boʻyicha seminar-treninglar oʻtkazish rejalashtirilgan.



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUNʼIY INTELEKT HAYOTGA KENG TATBIQ QILINADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raqamli texnologiyalarni
rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda
2026-yilga moʻljallangan ustuvor vazifalarga bagʻishlangan
taqdimot bilan tanishdi.**

Taqdimotda soʻnggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va innovatsion ekotizimni shakllantirish boʻyicha izchil ishlar amalga oshirilgani qayd etildi. Xorijiy ekspertlarning tahlillariga koʻra, 2024-2025-yillarda mamlakatimizdagi startap va venchur ekotizimining umumiy qiymati 3,9 milliard dollarga yetdi. Mahalliy startaplarning soni 750 tadan oshdi. Hozirgi kunda 15 ta venchur fond faoliyat

yuritmoqda, venchur kapital hajmi esa 180 million dollardan oshdi.

Oʻzbekiston dunyodagi ikkinchi eng tez oʻsayotgan va Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan startap ekotizimi deb eʼtirof etilmoqda.

Taqdimotda 2030-yilga qadar startaplarning sonini 5 mingtaga, eksport bozorlariga chiqqan startaplarning sonini 200 taga yetkazish, venchur investitsiyalarning hajmini 2 milliard dollarga olib chiqish maqsad qilingani taʼkidlandi.



SAMARALI DIPLOMATIYA MAKTABI

**Prezidentimizning tashqi aloqalarga doir tashabbuslari tufayli Oʻzbekiston
xalqaro siyosatning yangicha modelini yaratmoqda**



Nigoh

Ayni vaqtda dunyoda misli koʻrilmagan tebranishlar yuz bermoqda. Yaqindagina oʻzgarmas va goʻyo kelgusi oʻnyilliklar uchun ham kafolatlangandek boʻlib tuyulgan qoidalar endi boshqacha tus olmoqda. Mojaro hamda qarama-qarshiliklar esa kibertahdid va noaniqliklar sabab kuchayib boryapti. Davlatlar bunday mavhumlikni texnologiyalarning shiddat bilan oʻsishi, sunʼiy intellektning toʻlqinli ravishda joriy etilishi misolida his qilmoqda. Mahsulot yetkazib berish zanjirlari uzilyapti, ilgari samarali ishlab turgan transport yoʻlaklaridan foydalanib boʻlmay qoldi. Global iqtisodiyot esa borgan sari "domino effekti"ga duch kelib, mahalliy miqyosdagi inqirozlar birdan xalqaro inqirozga aylanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida bugungi kunda dunyoda yaqin-yaqingacha hech kim tasavvur qila olmagan oʻzgarishlar

sodir boʻlayotganini, davlatlar oʻrtasida iqtisodiy qarama-qarshilik, xavfsizlikka tahdidlar oʻrtib borayotgan tahlikali bir vaziyat yuzaga kelganini alohida qayd etib oʻtganini bejiz emas.

OʻZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN HAMKORLIK

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Iordaniya Hoshimiylar Podshohligning Oʻzbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Demiya Zuxeyr Haddod bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Unda Oʻzbekiston va Iordaniya oʻrtasidagi doʻstona, oʻzaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Muloqot chogʻida soʻnggi yillarda ikki mamlakat oʻrtasidagi hamkorlik izchil rivojlanib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar va parlamentlararo aloqalar mustahkamlanib borayotgani qayd etildi. Parlamentlararo munosabatlarni faollashtirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Taʼkidlanganidek, Iordaniya parlamenti mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda muhim oʻrin tutadi. Oʻzbekistonda ham Oliy Majlis davlat va jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan islohotlarni qoʻllab-quvvatlashda hamda qonunchilik jihatdan taʼminlashda faol ishtirok etib kelmoqda. Shu munosabat bilan parlamentlar oʻrtasida muloqotni

kengaytirish, qonun ijodkorligi, parlament nazorati va boshqa sohalarida tajriba almashishdan manfaatdorlik bildirildi.

Uchrashuvda shu yil 3 – 7-fevral kunlari Iordaniya Hoshimiylar Podshohlighi parlamenti Majlisi al-Ayan raisi Faysal Akif Misqal Al-Fayez boshchiligidagi delegatsiyaning Oʻzbekistonga rasmiy tashrifini tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Tashrif doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Iordaniya parlamenti Senati oʻrtasida parlamentlararo hamkorlik toʻgʻrisidagi memorandumni imzolash rejalashtirilgani qayd etildi.

Shuningdek, ikki davlat oʻrtasida raqamli tibbiyotni rivojlantirish, oliy taʼlim, texnologiyalar sohasidagi hamkorlik hamda Iordaniya va Oʻzbekiston birinchi biznes forumini tashkil etish yuzasidan ham fikr almashildi.

**Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.**



Bunday yangi voqeik fonda hatto eng yuqori xalqaro minbarlardan ham xavotirli xabarlar yangramoqda. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish dunyodagi yetakchilarni qattiq tanqid qilib, ular xalqaro huquqni qoʻpol ravishda buzgan holda xalqaro hamkorlikni ajal yoqasiga olib kelayotganini aytdi. Bosh kotib oʻzining yillik hisobotida 2026-yilga moʻljallangan ustuvorliklar haqida gapirar ekan, aniq bir davlatlarni sanab oʻtmagan boʻlsa-da, dunyo "geosiyosiy boʻlinishlar va xalqaro huquqning misli koʻrilmagan buzilishi" tufayli parchalanayotganini taʼkidladi. Uning soʻzlariga koʻra, xalqaro hamjihatlik har qachongidan ham zarur boʻlgan bir sharoitda davlatlar hamkorlikka va unga sarmoya kiritishga tayyor emasligini namoyon etmoqda.

Shunday sharoitda eng yirik xalqaro tashkilotlarning roli ham sezilarli darajada pasaydi. Ulardagi taʼsir vositalari zamonaviy tahdidlarning oldini olish va ularga oʻz vaqtida eʼtibor qaratishga ojizlik qilmoqda.

Davlatlarning tinchligi omonat boʻlib qoldi. Yangiliklar tasmasida koʻrsatilganidek, koʻchalaridagi tartibsizliklar esa deyarli ob-havo maʼlumotiga oʻxshaydi. Dunyo xaritasida barqarorlik va taraqqiyot hukm surayotgan mintaqani topishning oʻzi amrimahol boʻlib qoldi. Bunday manzarani kuzatgan odamlarda dunyo goʻyoki aqldan ozgandek taassurot uygʻotmoqda.

Insoniyatga donishmandlik, chidam va oʻzini qoʻlga olish qobiliyati, toʻgʻri soʻzni aytish va undan ham muhimi – subbatdoshini tinglash, oʻz manfaatlarini ilgari surishda boshqalarga ziyon yetkazmaslik singari xislatlar yetishmay qoldimi deb oʻylab qolasan, kishi. Robotlar va kosmik texnologiyalar davrida siyosatchilar, "taqdini hal qiluvchilar" goʻyo teng sharoitlarda hamda oʻzaro manfaatli muloqot olib borish, boshqalar fikrini ham hurmat qilish, kelishuvchanlikka tayyor boʻlish kabi qadriyatlarini unutib qoʻyishgandek.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

XALQ MANFAATLARI USTUVORLIGI — ASOSIY MAQSAD

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi. Unda oʻsimliklar karantini va himoyasi sohasidagi milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish, fitosanitar zararsizlantirishning zamonaviy usullarini joriy etish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarini samarali himoyalash, "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish, mamlakatimizga xalqaro onlayn toʻlov kompaniyalarini jalb qilish, fuqarolar va tadbirkorlarning sudlarga murojaati uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga doir qonun loyihalari koʻrib chiqildi.

Farmatsevtika sohasida texnologiyalar transferi keng qoʻllanadi

Majlisda dastlab "Farmatsevtika faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda moddama-modda koʻrib chiqildi.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda farmatsevtika sohasini rivojlantirish, yuqori talabga ega boʻlgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni

mahalliyashtirish, aholini sifatli va arzon mahsulotlar bilan taʼminlash boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan dori vositalari va tibbiy jihozlar muomalasini xalqaro mezonlar darajasida tartibga solish, hujayra texnologiyasi asosidagi biotexnologiya vositalarini ishlab chiqarishni joriy etish



2026 -yilda

Bunda:

**yangi texnologik
bosqichga oʻtish
va qoʻshilgan
qiymat zanjirini
kengaytirish
boʻyicha sanoatni
rivojlantirish
dasturi
boshlanadi.**

kelgusi 5 yilda sanoatda qoʻshilgan
giymatni hozirgi 36,5 milliard dollardan
kamida 60 milliard dollarga yetkazish
(oʻsish 1,6 barabar);

yuqori va oʻrtadan yuqori texnologiyali
tarmoqlardagi mahsulotlar hajmini
2,5 barabar oshirish marra sifatida
belgilanadi.

Bunga puxta tayyorgarlik koʻrish maqsadida
joriy yilda 52 milliard dollarlik 782 ta yangi
sanoat va infratuzilma loyihasiga start
beriladi.

FAKT VA RAQAMLAR

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va
Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

SAMARALI DIPLOMATIYA MAKTABI

Prezidentimizning tashqi aloqalarga doir tashabbuslari tufayli Oʻzbekiston



xalqaro siyosatning yangicha modelini yaratmoqda

Bebaho hissa

Aynan ana shunday tashvishi, qarama-qarshiliklar sharoitida bizning mamlakatimiz global hamjamiyatning e'tiborini tobora ko'proq o'ziga jalb etmoqda. Ma'lumki, jahonda turli davlatlarning tarixi, geografiyasi, iqtisodiyoti va siyosiy madaniyatini aks ettiruvchi diplomatiya maktablari yuzaga kelgan va ular tan olingan. Bular – ingliz, nemis, fransuz, xitoy, rus, yapon, amerika, turk maktablari va boshqalardir. Ayni paytda eng asosiy shartli tamoyilini aytmoqchi bo'lsak, u shunday ibora shaklida bo'lishi mumkin: "Hamma bilan do'stlik – hech kimga tobe bo'lmaslik". Uning bosh tashabbuskori, g'oyaviy ilhomchisi va siyosiy me'mori, haqli ravishda, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevdir.

Keyingi yillarda global siyosatda u yoki bu yetakchi nechta qurolli to'qnashuvni to'xtatishga erishganini sanash ulrga kirmoqda. Agar mana shu mantiqqa asoslanadigan bo'lsak, hech shubha yo'qki, Prezidentimiz Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida tez-tez yuz berib turgan to'qnashuvlarni to'xtatib, ularning yarashib olishiga hal qiluvchi hissa qo'shdi. Mabodo, ahvol shunday davom etaverganida, u nimaga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilmay qo'yaqolgan yaxshi edi.

Yaqinda qo'shni davlat Prezidenti Sadr Japarov o'zining faoliyati haqidagi filmda O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyevning Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi roli to'g'risida batafsil so'zlab berdi. Uning eslashicha, 2021-yil aprelda qirg'iz – tojik chegarasida bo'lgan to'qnashuvdan so'ng o'zining yaqin doirasidagi mansabdorlar, xususan – Milliy xavfsizlik qo'mitasi raisi Qamchibek Tashiyevning qarshiligi qaramay, Emomali Rahmon bilan Dushanbeda muzokara o'tkazgan. Lekin o'n soat davom etgan muzokara ham hech qanday natija bermagan.

Ana shunday samarasiz muzokaralardan keyin, Qirg'iziston o'z armiyasini kuchayтира boshladi, Turkiyadan uchuvchisiz apparatlar ham sotib oldi. 2022-yili navbatdagi to'qnashuvdan keyin ma'lum bo'ldiki, ikki davlatning armiyalari bir xil, teng kuchga ega ekan. Vaziyat shunday qaltis holatga keldiki, unda butun mintaqa uchun o'ta xavfli, oqibatini oldindan boshorat qilib bo'lmaydigan hodisalar yuz berishi mumkin edi.

Sadr Japarov Tojikiston bilan kelishuvga erishishda Shavkat Mirziyoyevning hissasi katta bo'lganini aytib o'tdi. U e'tirof etganidek, O'zbekiston Prezidenti har ikki qo'shni mamlakat rahbarlarini vaqtini o'tkazmasdan o'zaro kelishuvga rozi bo'lishga undadi.

Shunga o'xshash bahoni Qirg'iziston tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayev ham berdi. U Shavkat Mirziyoyevni Markaziy Osiyo davlatlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi rahbarlardan biri, deb atadi.

– Prezident Shavkat Mirziyoyev doim qirg'izlar va tojiklar o'zaro kelishib olishi, chegaradagi to'qnashuvlarni to'xtatishi kerakligini, agar mojaro davom etaversa, bizlarga birorta sarmoyador ham, sayyoh ham kelmasilgini aytardi, – dedi Qirg'iziston TIV rahbari. U O'zbekiston rahbarining qo'shni Tojikiston bilan ko'p yillar davom etayotgan chegara masalasidagi bahslarni hal etishdagi rolini ta'kidlar ekan, Shavkat Mirziyoyev mintaqa xavfsizligi, barqarorligi yo'lida o'zaro kelishuv sari borishni taklif qilganini aytib o'tdi.

Barchamiz yaxshi eslaymiz, 2025-yil martida Xo'jand shahrida uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Shavkat Mirziyoyevning tinchlikparvar sa'y-harakatlari tufayli Sadr Japarov va Emomali Rahmon ikki mamlakat o'rtasidagi Davlat chegarasi to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Ular orasidagi chegarada 2021-yildan buyon yopiq bo'lib turgan ikkita nazorat-o'tkazish punktining faoliyati tiklandi. Bishkek bilan Dushanbe va Xo'jand orasidagi aviataxshuvlar ham yana yo'lga qo'yildi. O'sha o'nying o'zida, uch davlat rahbarlarining Xo'jand shahridagi uchrashuvida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risida uch tomonlama shartnomani imzoladi. Chegaralar kesishgan joyda yetakchilar tomonidan Do'stlik stelasi tantanali ravishda ochildi.

Marosimda Shavkat Mirziyoyev mazkur shartnoma barqarorlik va ichil taraq'qiyotni ta'minlashga, butun mintaqaning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilishini ta'kidladi. Qachondir bizni ajratib turgan chegaralar endi do'stlik va hamkorlik ko'prigiga aylanishi aytiladi. Bu

so'zlar mintaqaviy siyosatda yangi davr boshlanganini anglatadi – shunday davrki, unda xaritadaqi chiziqlar ajratuvchi emas, balki manfaatlarni birlashtiruvchi chiziq bo'ladi.

Ayni paytda xalqaro ekspertlar tomonidan Markaziy Osiyo sifat jihatdan yangi transformatsiyani boshidan kechirayotgani to'g'risida aytilmoqda. Va bu bejiz emas: "Maslahat uchrashuvlari mintaqani o'zgartirmoqda – u avvalgi tarqoqlikdan yagona siyosiy-iqtisodiy makonga aylanmoqda", deb yozadi Belgiyaning "EUReflect" nashri. Ta'kidlanishicha, 2018-yildan buyon muntazam o'tkazilib kelinayotgan davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy hamkorlik arxitekturasini tom ma'noda qaytadan ishga tushirdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yildayoq taklif etilgan ushbu format tashabbusdan mintaqadagi kuchlar balansini o'zgartiruvchi mexanizmga aylandi.

So'nggi yetti yilning asosiy natijasi

to'plashga emas, sarmoyaning sifati, undan kutilayotgan natijaga qaratiladi. Birinchi navbatda, tashqi siyosat yutuqlari to'g'ridan-to'g'ri fuqarolar hayotini yaxshilash imkonini berishi lozim. Aynan shuning uchun ham Yangi O'zbekistonning tashqi siyosatga tegishli tashabbus va sa'y-harakatlariga nisbatan ko'p hollarda "proaktiv" degan tushuncha qo'llanilmoqda. Proaktiv yondashuv muammo va imkoniyatlarni oldindan ko'ra bilishdir, u – voqea-hodisalarni kutib o'tirish yoki yuzaga kelib bo'lgan xavflarga munosabat bildirishdan farqli o'laroq maqsadga erishish uchun mustaqil ravishda harakat qilish, degani. Zamonaviy dunyoda aynan shu yo'l bilan taraqqiyot uchun juda zarur bo'lgan sarmoyalarni, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga kerak bo'ladigan yangi ekspor bozorlarini topish mumkin. Shuningdek, busiz transport yo'laklariga chiqish ham qiyin. Sarmoyalar bo'lmasa, mamlakat, albatta, savdodan uzilib qoladi. Chetda, izolyatsiyada qolish esa xalqaro

Anqara inqirozlar va siyosat tadqiqotlari markazi rahbari, professor Mehmet Seyfettin Erol.

Zamonaviy dunyoda diplomatiya biznesga yo'l ochadi. U esa keyinchalik mablag'ni iqtisodiyotga yo'naltiradi, ish o'rinlari yaratadi, soliq to'laydi va texnologiyalar keltiradi. Davlatimiz rahbari xorijiy safarlari davomida biznes-forumlarda ishtirok etishga, shuningdek, ishbilarmon doiralari, moliyaviy muassasalar va xalqaro tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazishga alohida e'tibor berishi bejiz emas. Tashqi siyosatning iqtisodiyotga tegishli qismi endi ikkinchi darajali emas. U tashqi siyosatning yadrosiga aylandi.

Videoselektor yig'ilishida aytilganidek, elchilar uchun ular faoliyat yuritayotgan davlatlardan eksport tushumlari, turistlar oqimi hamda ushbu mamlakatlarga qonuniy mehnat migratsiyasi samaradorlik mezonini bo'lishi lozim. Iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish orqali eksport va investitsiya hajmini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Hech shubha yo'qki, O'zbekiston yetakchisi – bu ishni qanday yo'lga qo'yishda o'rnak ko'rsatadigan inson. Keyingi paytlarda davlatimiz rahbarining tajribasini boshqa mamlakatlarga yoyish haqidagi chaqiriqlar bo'lmoqda.

– Aytmoqchimanki, butun dunyo Prezident Shavkat Mirziyoyevdan sarmoyalarni qanday jalb qilish va investorlar bilan ishlashni o'rganishi kerak. Bu nafaqat energetikaga, balki mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalariga tegishli, – degan edi "AKWA Power" kompaniyasi boshqaruvi hamraisi, O'zbekistonda energetika loyihalarini amalga oshiruvchi Saudiya arabistonlik investor va tadbirkor Muhammad Abunayyan.

Uning fikricha, investorlar O'zbekiston rahbariga muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga sharoit yaratib bergani hamda ishchanlik muhiti uchun minnatdorlik bildirishi kerak. Yana u o'zbekistonliklarni islohotlar va keng ko'lami yangilanish uchun faxrlanishga da'vat etdi. Negaki, har qaysi mamlakat va uning yetakchisi ham bunday keng ko'lami yangilanishni ta'minlashga qodir emas.

– Men tez-tez xorijda bo'laman va doim O'zbekistonni misol qilib keltiraman. Albatta, bu mamlakatga borishga, u yerda yaratilgan investitsion muhit bilan tanishishga chaqiraman, – dedi u.

Tashqi siyosat sohasidagi faollik sezilarli natijalar berdi. 2025-yilda ikki tomonlama va ko'p tomonlama tadbirlar

siyosatda juda qimmatga tushadi.

Ochiqlik siyosatini, pragmatik diplomatiyani davom ettirish haqidagi tezis Prezidentimiz raisligida yaqinda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida aniqlashgan belgilab berildi. Bu yig'ilish Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalarimizning faoliyatiga tegishli masalalarga bag'ishlandi. Davlatimiz rahbari mazkur uchrashuv jahonda keskin geosiyosiy o'zgarishlar bo'layotgan, davlatlar suverenitetiga xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotgan murakkab bir paytda o'tayotganini qayd etdi. Shu munosabat bilan bunday sharoitda tashqi siyosat sohasidagi faoliyatni tanqidiy muhokama qilib, Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar ishini yangicha tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari qayd qilganidek, tashqi siyosat borasida 2025-yil ko'p jihatdan natijador bo'ldi. Yil davomida 26 ta xorijiy davlatga oliy darajadagi tashifrlar

“ O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar, ayniqsa, hozirgi global xavotir va turbulentlik sharoitida ham ajralib turibdi. Dunyo kuch ishlatish, ultimatum va sanksiyalar qo'yish kabi voqeliklar bilan to'lib-toshgan bir paytda bizning davlatimiz muloqot, ishonch va pragmatizmga asoslanmoqda.

amalga oshirildi, yangi tariximizda ilk bor qator davlatlar rahbarlarining O'zbekistonga tashriflari uyushtirildi. "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi ko'p tomonlama muloqotlar sermahsul bo'ldi. So'nggi yillarda 11 ta davlat bilan strategik sheriklik munosabatlari o'rnatilib, ularning umumiy soni 19 taga yetdi, Qozog'iston, Ozarbayjon va Tojikiston bilan ittifoqchilik munosabatlari yo'lga qo'yildi.

– Ochiq, pragmatik, puxta o'ylangan va tashabbuskor tashqi siyosatimiz natijasida O'zbekiston global tinchlik va diplomatiya markazlaridan biriga aylanib bormoqda, – dedi Prezidentimiz.

2017-yildan buyon xorijiy davlatlarda 16 ta yangi diplomatik va konsullik vakolatxonalari ochilib, ularning soni 60 taga, diplomatik aloqa o'rnatilgan davlatlar soni esa 165 taga yetdi. Elchixonalar, konsullik muassasalari va xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalar shattlari hamda Tashqi ishlar vazirligi xodimlarining ish haqi oshirilgani qayd etildi. Ushbu tadbirlar tashqi siyosiy infratuzilmani tizimli qayta qurish elementlari bo'ldi.

– Shavkat Mirziyoyev siyosati yangi imkoniyatlarni ochuvchi aniq yo'nalishlarga asosan qurilmoqda: xalqaro aloqalar geografiyasi muttasil o'sib bormoqda, ularning mazmuni esa chuqur va amaliy tus olmoqda. Shu fonda Markaziy Osiyo asta-sekin "cheffa hudud" bo'lishdan to'xtab, transport, energetika va investitsiyalar sohasida nufuzi ortib borayotgan Yevrosiyaning mustaqil bo'lagiga aylanib bormoqda. Aynan O'zbekiston bugungi kunda mintaqani yangi energiya va ma'no bilan to'ldirgan holda ushbu jarayonga jadal sur'at bormoqda, – deb hisoblaydi

– Hozirgi sharoitda elchi degani faqat siyosiy muloqot yurituvchi shaxs emas. Elchi – investitsiya va texnologiya olib keladigan, yangi eksport bozorlarini ochadigan, transport-logistika yo'laklarini ishga soladigan, turistlar oqimini ko'paytirib, qonuniy mehnat migratsiyasi uchun sharoit yaratadigan, eng asosiysi, fuqarolarimiz huquqlarini himoya qiladigan davlat vakilidir, – dedi Prezidentimiz.

Elchixonalar va konsulliklar fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilishda faol bo'lishi, har bir holat bo'yicha malakali yuridik yordam ko'rsatishi shartligi ta'kidlandi. "Kabinet diplomatiyasi"dan voz kechib, joylarda ishlash, vatandoshlar bilan bevosita muloqotga kirishish vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Yaponiya va Singapurdagi elchilar bilan birgalikda dunyodagi "TOP – 100"talikka kiruvchi yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarini O'zbekiston oliyog'lariga hamkor sifatida jalb etish bo'yicha aniq choralar ko'rish zarurligi ta'kidlandi.

Shu tufayli tashqi siyosat yanada aniqroq gumanitar va ta'limiy ko'rinishga ega bo'ladi, busiz esa uzoq muddatli rivojlanish haqida gapirishning imkonini yo'q.

Prezidentimiz aniq yo'nalishlar haqida so'zlar ekan:

– Endi yangicha ruhda ishlaydigan, aniq natijalarga erishayotgan, O'zbekiston manfaatlarini xalqaro miqyosda qat'iy himoya qiladigan diplomatlar davri keldi, – deb aytdi.

Yangi O'zbekistonning tashqi siyosatdagi sa'y-harakatlari va yutuqlari xorijdagi tahlilchi chiqishlarda ham e'tirof etilmoqda.

– Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda 2016-yildan buyon olib borilayotgan transformatsiya jarayoni ko'p tomonlama xususiyati, faolligi, tinchliksevarligi, o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangani va ochiqchilik bilan ajralib turadi. Ko'p vektorli diplomatiya va iqtisodiy diplomatiya O'zbekistonni xalqaro maydonda namunali davlatga aylantirdi. Sayyohlik va madaniyat tufayli O'zbekiston tamaddunlararo muloqotga faol xizmat qiladi, shuningdek, o'zining pozitsiyasini global hamkorlik va tinchlik yo'lida platforma sifatida mustahkamlaydi, – deb yozildi Pokistondagi "The Gulf Observer i The Europe Today" nashrining "O'zbekistondagi transformatsiyalarning o'n yilligi" sarlavhali maqolasida.

Ekspertlar fikricha, o'tgan yil O'zbekistonning tashqi siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash yili bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligi ostida bu davlat ochiq, pragmatik, faol va tashabbuskorona tashqi siyosat olib bordi. Hamma Markaziy Osiyodagi muhim o'zgarishlarning guvohi bo'ldi. Xususan, bu – Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida tinchlik shartnomasining imzolinishi bo'lib, unda O'zbekiston asosiy vositachi sifatida katta rol o'ynadi.

Pokiston OAVda qayd etilganidek, mamlakatimiz butun dunyo bo'ylab sheriklik aloqalarini shakllantirgan holda yuqori darajada samarali tashqi siyosatni rivojlantira boshladi. Bugun O'zbekiston AQSH, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Yaqin Sharq va dunyoning ko'plab davlatlari diqqat markazida. Ushbu barcha aktorlar O'zbekiston bilan hamkorlikni kuchaytirishga intilyapti, chunki mamlakat global inqirozlar avj olayotgan zamonda ishonchli sherik sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar, ayniqsa, hozirgi global xavotir va turbulentlik sharoitida ham ajralib turibdi. Dunyo kuch ishlatish, ultimatum va sanksiyalar qo'yish kabi voqeliklar bilan to'lib-toshgan bir paytda bizning davlatimiz muloqot, ishonch va pragmatizmga asoslanmoqda. Ba'zi davlatlarda xalqaro hamkorlik eskirgan usul, deb e'lon qilinayotgan bir paytda O'zbekiston o'zining mustaqillikni hurmat qilish, o'zaro manfaatlarni hisobga olish va barqaror taraqqiyotga erishish kabi tanlovlariga asoslangan holda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda.

Balki shakllanib borayotgan o'zbek diplomatiyasining eng asosiy qadriyati ham shundadir. Bu diplomatiya shuni namoyon etmoqdiki, hatto global tebranishlar, texnologik sakrashlar va geosiyosiy parchalanishlar davrida ham bir tamoyil hamisha talabgir va samarali bo'lib qoladi – u ham bo'lsa, o'z davlating manfaatlari yo'lida muloqotni yo'lga qo'yish mahoratidir.

Dunyo bugun juda murakkab davrni boshdan kechirmoqda. U tobora murosasiz va xavfli bo'lib bormoqda. Xalqaro hamkorlik chuqur tanazzulga yuz tutgan. O'zbekiston esa, aksincha, unga o'z mintaqasida hayotbaxshlikni qaytarmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston va davlatimiz yetakchisining diplomatiyani vayronkorlik emas, balki yaratuvchanlik vositasiga aylantirish tajribasi dunyo mamlakatlari va tarix uchun ibrat maktabiga aylanmoqda.

O'tkir RAHMAT.

Sayyohlik

Me'moriy va dizayn konsepsiyasi o'zgacha

Samarqandda "Asian World" turizm ko'chasi tashkil etilmoqda. Bu ko'cha hududida dam olish zonallari, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, piyodalar yo'laklari, tashqi yoritish tizimi, ko'cha bezaklari Osiyo davlatlariga xos me'moriy va dizayn konsepsiyasi asosida, milliy uslublar uyg'unligida zamonaviy yechimlar bilan jihozlanadi. Turizm axborot vositalari, yo'naltiruvchi belgilar va fotozonalar tashkil etilishi ham ko'zda tutilgani e'tiborga molik.



Kechayu kunduz – 7/24 tizimida faoliyat yurituvchi "Asian World" Osiyoning turli davlatlari madaniyati, milliy taomlari, hunarmandchiligi va an'analarini bir makonda mujassamlashtiruvchi ochiq turizm maydoniga aylanishi rejalashtirilaypti. Bu esa nafaqat xorijiy sayyohlar, balki mahalliy aholi uchun ham yangi madaniy va o'zgacha muhitni yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Shaharni kompleks rivojlantirish, turizm xizmatlari ko'lamini kengaytirish, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasini qo'llab-quvvatlash hamda ish o'rnlari yaratishda mazkur loyiha muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV ("Xalq so'zi").

Omilkorlik

Oq qulupnay shirinmi yoki qizil?

Angren shahridagi Yangi Jigariston mahallasida mintaqamiz iqlimida sinab ko'rilmagan yangi rezavor – oq qulupnay yetishtirilmoqda. "Bir hudud, bir mahsulot" tamoyili asosida mahalla ahli o'z issiqxonalarida eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish bilan birga import o'rnini bosuvchi yangi navlarni mahalliyishtirishga yaratib etgan.



Gap shundaki, angrenlik Bekzod Madusmonov bir muddat xorijda bo'lib, noyob navli qulupnayni parvarishlash bo'yicha tajriba to'plab qaytdi.

– Magadan shahriga borganimda do'konda odatiy qizil emas, oq qulupnayning sotilayotganiga guvoh bo'ldim va uning qanday yetishtirilishi bilan qiziqdim, – deydi B. Madusmonov. – Sovuq iqlim sharoitida issiqxonada parvarishlanayotgan qulupnayni ko'rib, havasim ortdi. O'sha yerlik tadbirkorlar bilan maslahatlashib, issiqxonaga ishga joylashdim.

U Vatanga qaytgach, o'z tomorqasidagi issiqxonada oq qulupnay yetishtirish tajribasini amaliyotga tatbiq etib boshladi. Tomorqadagi uch sotix issiqxona hozirgi kunga kelib, bir emas, bir necha oilaning ro'zg'orini tebratayotir.

– Oq qulupnayni yetishtirsak, uning xaridori topiladimi, degan savol ham bo'lgan edi, albatta, – deydi tomorqachi. – Ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilganimizdan so'ng mijozlarning o'zlari kelib olib ketadigan bo'ldi. Chunki qizil qulupnayga nisbatan oq qulupnay shirin. Yetishtirgan hosilimiz faqat ichki bozorga emas, qo'shni mamlakatlarga ham sotilmoqda.

Mahallada bu tajriba tezda omamallasib, tomorqachilar oq qulupnay yetishtira boshlagan. Gidrononika usulidagi issiqxonalarda parvarishlanayotgan yangi rezavor yangilikka intiluvchan mirishkorlarning daromad manbaiga aylanmoqda.

Otabek ISROILOV ("Xalq so'zi").

XALQ MANFAATLARI USTUVORLIGI — ASOSIY MAQSAD

Shuningdek, farmatsevtika sohasida texnologiyalar transferini keng qo'llash, organizmning funksional imkoniyatlarini tiklash uchun qo'llaniladigan dori vositalarini tibbiyot amaliyotiga tatbiq qilish nazarda tutilyapti.

Ushbu qonun loyihasida belgilanayotgan normalar mahalliy farmatsevtika korxonalarining quvvatini oshirish, tibbiy jihozlar eksportini kengaytirish, xalqimiz salomatligini yanada kuchliroq himoyalashga qaratilgan.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

O'simliklar karantini qonunchiligi xalqaro talablarga moslashtirilmoqda

Deputatlar milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini qo'llash bo'yicha bitimiga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda muhokama etdi.

Aytilganidek, mazkur qonun loyihasi Qonunchilik palatasining 2025-yil 23-dekabr kuni bo'lib o'tgan yalpi majlisida birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilingan edi.

Loyiha bilan O'zbekiston Respublikasining qator qonun hujjatlariga JSTning Sanitariya va fitosanitariya choralarini qo'llash bo'yicha bitimida belgilangan qoida va normalarga muvofiqlashtirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

O'tgan davrda mas'ul qo'mita tomonidan birinchi o'qish davomida bildirilgan taklif va mulohazalar asosida qonun loyihasi takomillashtirildi. Xususan, loyihaning nomi amaliyotdan kelib chiqqan holda aniqlashtirildi. "O'simliklar karantini to'g'risida"gi Qonun normalari xalqaro standartlar bilan qayta solishtirib chiqildi.

Risqul SIDDIQOV, Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi a'zosi:

— *Loyihada nazarda tutilayotgan normalar fitosanitariya sohasidagi qonun hujjatlarini bugungi kundagi barcha xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga, mamlakatimizda yetishtirilgan o'simlik va o'simlik mahsulotlarining xalqaro savdoda to'siqsiz harakatlanishiga, o'simliklar karantini sohasida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.*



Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Qo'riqlash faoliyati takomillashtiriladi

Majlisda "Qo'riqlash faoliyati takomillashtirishni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur hujjat 6-yanvar kuni bo'lib o'tgan Qonunchilik palatasining majlisida birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilingan edi. Qonun loyihasi ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar asosida takomillashtirildi.

Xususan, Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi mas'ulligida ishchi guruh yig'ilishlarida atroflicha muhokama etilib, normalarni aniqlashtirishga, amaldagi qonunchilik bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan qator o'zgartirishlar kiritildi.

Qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilayotgan o'zgartirishlar doirasida ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va jazo qo'llashga oid vakolatlar Ichki ishlar vazirligi huzuridagi qo'riqlash bo'linmalarining tegishli mansabdor shaxslariga berilmoqda.

"Ichki ishlar organlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida", "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida" hamda "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi qonunlarga kiritilayotgan o'zgartirishlar orqali qo'riqlash faoliyati sohasida Ichki ishlar vazirligi

va Milliy gvardiyaning vakolatlari chegarasi aniq belgilanyapti.

Majlisda qonun loyihasi qo'riqlash faoliyatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashi ta'kidlanib, deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Yangi tartiblar joriy etilmoqda

Majlisda fitosanitar zararsizlantirish faoliyatini litsenziyalashga doir qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, loyiha bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda. Mazkur hujjat fitosanitar zararsizlantirish faoliyatini yuridik shaxslar tomonidan litsenziya asosida amalga oshirish tartibini, shuningdek, xalqaro tajriba asosida fitosanitar zararsizlantirish turlarini belgilashga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan fitosanitar zararsizlantirishning zamonaviy usullarini joriy etish, ushbu faoliyatni yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini import va eksport qiluvchilar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilmoqda.

Qonun loyihasiga mas'ul qo'mitaning ma'lum qilishicha, loyihani ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida u ishchi guruh a'zolari va deputatlar takliflari asosida takomillashtirilgan.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlari samarali himoya qilinadi

Deputatlar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Loyiha bilan ma'muriy sud ishlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish, ya'ni fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy, xalqaro standartlarga mos mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslarga hamda "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Ushbu yangiliklar ma'muriy sud ishlarini yuritish samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan yangi institut va tartiblarni joriy etishni nazarda tutadi.

Qonun loyihasidagi muhim yangiliklardan biri — "ishonchning huquqiy himoyasi" prinsipidir. Unga ko'ra, davlat organining qaror yoki hujjatiga ishonib, vijdonan harakat qilgan fuqaro yoki tadbirkorning huquqlari qat'iy himoyaga olindi. Davlat organi xatosi uchun halol faoliyat yuritgan shaxs javobgar bo'lmasiligi qonun darajasida mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga, ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki eshituv instituti joriy etilyapti. Ushbu bosqich sud muhokamasigacha dalillarni to'plash, da'vo talablarini aniqlashtirish va tarafdarni kelishtirish imkonini beradi. Bu esa ishlarni ko'rish muddatlarini qisqartirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Loyihadagi yana bir muhim yangilik davlat organlari mansabdor shaxslarining sud majlislarida majburiy ishtiroki belgilanayotganidir. Asossiz sabablar bilan sudga kelmagan mansabdor shaxslarga nisbatan sud jarimalari qo'llanilishi nazarda tutilmoqda. Bu davlat organlari mas'uliyatini oshirish, sud jarayonlarida haqiqiy tortishuv va ochiqlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Bundan tashqari, sudga hurmatsizlik qilganlik yoki sudning xususiy ajrimlarini ijro etmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortish vakolati bevosita ma'muriy sudlarning o'ziga berilayotgani sud hokimiyatining nufuzi va ta'sirchanligini yanada mustahkamlaydi.

Tashabbuskorlarning ma'lum qilishicha, qonun loyihasini ishlab chiqishda Germaniya, Yaponiya, Estoniya, Fransiya kabi davlatlarning ma'muriy adliya sohasidagi ilg'or tajribasi chuqur o'rganilgan, shuningdek, korruptsiyaga qarshi va gender ekspertizalaridan o'tkazilgan hamda jamoatchilik muhokamasida qo'llab-quvvatlangan.

Zuhriddin MAVLONOV, Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zosi:



— *Albatta, yangi tartiblarning joriy etilishi davlat organlari faoliyati ustidan samarali sud nazoratini ta'minlash, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, muhimi, fuqarolarning sud tizimiga ishonchini mustahkamlaydi.*

Qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

Soliq nazoratini amalga oshirishda zamonaviy yondashuvlar

Majlisda raqamli markirovkalash tizimi samaradorligi oshirilishi munosabati bilan Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan "masofaviy soliq tekshiruv" tushunchasiga aniqlik kiritilib, mazkur tekshiruvni o'tkazish tartibini soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini ta'minlash hamda byudjet daromadlari barqarorligini mustahkamlash nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, markirovkalash qoidalarini buzish holatlari bo'yicha masofaviy soliq tekshiruvini soliq to'lovchining huzuriga bormasdan, huquqbuzarlik yuzasidan ikki marta ogohlantirish berilganidan so'ng o'tkazish, shuningdek, mazkur holat bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarini tezkor tashkil etish qonuniy asosda belgilanmoqda.

Shu bilan birga, xufiyona aylanma va "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, ayrim shaxslar tomonidan markirovkalash qoidalarini chetlab o'tish orqali noqonuniy daromad olish maqsadida aholiga sifatsiz yoki qalbaki mahsulotlarni, jumladan, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, dori vositalari, salqin ichimliklar va boshqa tovarlarni realizatsiya qilish holatlari kuzatilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi aynan shunday huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularning oldini olish hamda insofli soliq to'lovchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan.

Xalq vakillari qonun loyihasida soliq nazoratini amalga oshirishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, xususan, markirovkalash qoidalarini buzish holatlari bo'yicha masofaviy soliq tekshiruvini o'tkazish tartibini aniq belgilash hamda huquqbuzarliklarni bartaraf qilishga qaratilgan profilaktika mexanizmlari loyihada nazarda tutilganligini ma'qulladi.

Deputatlar qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollarni o'rtaga tashladi.

Saydullo AZIMOV, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:

— *Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonuniy maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi shart. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar, xususan, soliq qonunchiligini liberalashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Biroq qonun loyihasida taklif etilayotgan ayrim normalar javobgarlikni individuallashtirish prinsipiga to'liq javob bermayapti. Xususan, ikki marta ogohlantirilgandan so'ng markirovkalash talablarini bajarmagan tadbirkorga oxirgi soliq hisoboti choradagidagi sof foydaning 0,2 foizi miqdorida jarma qo'llash nazarda tutilgan. Ammo qonunbuzarlik miqdori aniq belgilanmagan. Natijada arzimagan texnik xatolik sabab bir necha mahsulotni markirovkalamagan tadbirkor ham, minglab mahsulotni markirovkalamagan tadbirkor ham bir xil javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu esa adolat va mutanosiblik prinsiplariga*



zid. Savol shundayki, nima uchun qonun loyihasida ushbu turdagi qonunbuzilishlar uchun javobgarlikni individuallashtirishga imkon beruvchi aniq miqdoriy mezonlar nazarda tutilmagan?

Qonun tashabbuskorlari bu bo'yicha batafsil javob berib, bildirilgan fikr-mulohazalar, takliflar qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlashda ko'rib chiqilishini urg'uladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

Shaxsga doir ma'lumotlar turlari belgilanmoqda

"Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini rivojlantirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish, shuningdek, sayyohlar oqimini ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini kengaytirishga qaratilgan izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu jarayonlar zamonaviy raqamli to'lov tizimlarini joriy etish va xalqaro onlayn to'lov kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirishni taqozo qilmoqda.

Shu munosabat bilan loyihada O'zbekiston hududida majburiy tarzda saqlanishi lozim bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlar turlarini aniq belgilash, shuningdek, ayrim ma'lumotlarni chet elda qayta ishlash va saqlash uchun xavfsizlik, xalqaro standartlarga rioya etish va vakolatli organ talablarini bajarish kabi shartlarni joriy qilish taklif etilmoqda.

Javlon ABDULLAYEV, Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

— *Ko'zda tutilgan ushbu o'zgartirishlar xalqaro to'lov tizimlarini mamlakatimizga jalb qilish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, raqamli xizmatlar bozorini kengaytirish hamda fuqarolar va sayyohlar uchun zamonaviy to'lov imkoniyatlarini yaratadi.*



Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Sudlarga murojaat qilish yanada yengillashtiriladi

Majlisda fuqarolar va tadbirkorlar uchun iqtisodiy hamda ma'muriy sudlarga murojaat qilishda qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan Jinoyat va Iqtisodiy protsessual kodekslari, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks, shuningdek, "Sudlar to'g'risida"gi va "Davlat boji to'g'risida"gi qonunlarga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Jumladan, ma'muriy sud ishlarini yurituvda — huquqi buzilgan shaxslarning tanloviga ko'ra, iqtisodiy sud ishlarini yurituvda esa tarafdarning kelishuviga asosan eksteritorial sudlov mexanizmini joriy etish taklif qilinmoqda. Bunda ishni ko'rib chiqadigan sud avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali belgilanishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, iqtisodiy sudlar tuzilmasini optimallashtirish orqali ularning faoliyati samaradorligini oshirish, yagona sud amaliyotini shakllantirish maqsad qilingan. Buning doirasida tumanlararo, tumanlar, shahar iqtisodiy sudlari tugatilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyat markazlarida tumanlararo iqtisodiy sudlar faoliyati yo'lga qo'yilishi belgilanmoqda.

Yana bir muhim yangilik — agar qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan bo'lsa va da'vo arizasi shu ish doirasida ko'rilishi lozimligi sababli ko'rmasdan qoldirilsa, davlat boji qaytarilishi belgilanyapti.

Majlisda taklif etilayotgan o'zgartirishlar sudga murojaat qilishdagi ortiqcha ovoragarchiliklarni kamaytirish, korruptsiyaviy omillarni bartaraf etish hamda sud qarorlarining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

Sadoqat, jasorat va mas'uliyat

Vatan himoyasi — g'oyat sharaffi va mas'uliyatli vazifa. Hayotini shu ishga bag'ishlagan yurtdoshlarimiz, mamlakatimiz mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini ko'z qorachig'idek asrab kelayotgan ona yurt posbonlari hamisha davlatimiz e'tiborida, el ardog'ida.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni keng nishonlandi va bu ayyom harbiy vatanparvarlikka yo'g'rilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar asosida tizimli davom ettirilmoqda. Ushbu qutlug' sana munosabati bilan bir guruh harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari Prezidentimiz farmoniga ko'ra yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Sadoqat, jasorat va mas'uliyat maktabida toblanib, mamlakatimiz ravnagiga munosib hissa qo'shayotgan yurt posbonlaridan ayrimlarining dil so'zlarini yozib oldik.

Dil soʻzi

Murodjon SHUKRULLAYEV, Toshkent tumani prokurori o'rinbosari, "Sodiq xizmatlari uchun" medali sohibi:

— Keyingi yillarda barcha soha qatori prokuratura tizimida ham katta o'zgarishlar bo'ldi. Avvallari huquq-tartibot idoralariga oddiy odamlarning kirib chiqishi ham muammo bo'lardi. Bugun-chi? Fuqarolar idoraga emas, prokuratura xodimlari odamlar oldiga boryapti, xonadonlarga kirib muammolarini o'rganyapti, masalalariga yechim topishga ko'maklashyapti. Bu tizim yanada prokuratura o'rtasidagi ko'prikn yanada mustahkamladi, muloqotni sifat jihatdan yaxshiladi.

Toshkent tumanining o'zida yuzlab fuqaroning buzilgan huquqlari tiklanayotgani, yana yuzlab murojaatlar qonunchilikda belgilangan tartibda ijobiy hal etilgani ham faoliyat tartibi o'zgartgani va uning samarasini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mana shu tariqiy jarayonlardagi kamtarona ishtirokim davlatimiz tomonidan e'tirof etilganidan, avvalo, ota-onam xursand bo'ldi. Ko'ksimga taqilgan medal guvohnomasiga yozib qo'yilganidek, bundan buyon ham Prezidentimiza, Vatanimga va xalqimga sadoqat bilan xizmat qilaman.



Asliddin SULTONOV, Pastdarg'om tumanidagi "Ilm" mahalla fuqarolar yig'ini profilaktika inspektori, "Shuhrat" medali sohibi:

— Mahallada ishlash — katta ishonch, ulkan vazifa. Men xizmat yuritayotgan mahallada 1 158 oilada 5 668 nafar aholi istiqomat qiladi. Ularning tinchligi, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish — biz uchun kundalik vazifaga aylangan. Osoyishta yashash, orzu-maqsadlar sari intilish — inson uchun eng katta ne'mat. Shu ma'noda, bugun mahallamizda qat'iy tartib, aholining qonunlarga bo'lgan hurmati va daxldorligi ortib bormoqda. Faoliyatimiz faqat huquqbuzarliklarning oldini olish bilan cheklanmaydi, balki o'smirlar va yoshlar bilan muntazam ish olib boramiz. Masalan, biror foydali kasb bilan band bo'lmagan yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, o'z kasbining ustalariga biktirish, sport to'g'araklariga jalb etish masalasi doimiy e'tibor markazida. Yoshlarni ta'limga yo'naltirish, ma'naviyat va barkamol bo'lib ulg'ayishiga qaratilgan dasturlar ijrosi doirasida taniqli insonlar ishtirokida davra suhbatlari muntazam yo'lga qo'yilgan. Xullas, kasbimni taqdirim deb bilaman, har bir sa'y-harakatimiz el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi uchun qaratilgan.

Har bir inson o'z mehnati orqali kamol topadi. Shu yil 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga muvofiq "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Bu yuksak e'tirof zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Bundan buyon ham bor kuch-g'ayratimni Vatanimizga xizmat qilishga, tinchlik uchun qalqon bo'lganiga safarbar etaman.



Nodirjon AMONOV, Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Buxoro shahar bo'limi katta yo'riqchi-qutqaruvchisi, "Jasorat" medali sohibi:

— Bolaligidan harbiy libos kiyishni orzu qilardim. Harbiy soha vakillarini uchratganimda yoki suhbatlashganimda qalbimni hayajon bosardi. Havas maqsadga aylanib, favqulodda vaziyatlar tizimida ishlash baxti nasib etdi.

Mazkur sohada xizmat qilish kishidan katta mas'uliyatni talab etadi. Negaki, qutqaruvchi har kuni inson hayoti bilan yuzma-yuz keladi. Xavf-xatarli vaziyatlarda tezkorlik bilan to'g'ri qaror qabul qilishi kerak.

Kuchli iroda, qat'iyat, puxta jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish ham muhim. Chunking yong'inlar, tabiiy ofatlar, texnogen hodisalar shijoatimizni sinovdan o'tkazadi. Jamoamiz safida shu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tayotganim, mushkul pallalarda bizga umid ko'zi bilan boqgan insonlar ishonchini safdoshtarim bilan birgalikda oqlayotganimizdan, og'ir vaziyatlarga tushib qolgan kishilar hayotini saqlab qolayotganimizdan mamnunman.

Davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkili etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigini katta mamnuniyat bilan kutib oldik. Tabrikda erishilgan yutuqlar va soha xodimlariga bildirilgan ishonch bilan birga, oldimda turgan muhim vazifalarga ham to'xtalib o'tildiki, bu bizni yanada shijoat bilan ishlashga undaydi, albatta.

Rag'bat, bu — ishonch. Bildirilgan ishonchni oqlab, Vatanimga sodiq xizmat qilishda qat'iy davom etaman.

"Xalq so'zi".



Joriy yil 1-fevraldan umumta'lim muassasalarida "Jadidlar izidan" kitobxonlik klublari faoliyat boshlaydi.

Xalq soʻzi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir Oʻtkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabaq. Offset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2030-6786

4 72030 678001

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir R. Bobojonov.

Musahhih Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.42 Topshirildi — 23.30

1 2 3 4 5 6